

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

QURBANOVA SHAXLOXON BAHODIROVNA

**YETUKLIK YOSHDAGI BEMORLAR PSIXOEMOTSIONAL SOHASINING
O‘ZIGA XOSLIGI (SIL KASALLIKLAR MISOLIDA)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Psixologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna

Yetuklik yoshdagi bemorlar psixoemotsional sohasining o'ziga xosligi (sil kasalliklar
misolida).....

Курбонова Шахлохон Баходировна

Особенности психоэмоциональной сферы больных зрелого возраста (при
туберкулезе).....

Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna

Features of the psycho-emotional sphere of patients of mature age (with
tuberculosis).....

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

QURBANOVA SHAXLOXON BAHODIROVNA

**YETUKLIK YOSHDAGI BEMORLAR PSIXOEMOTSIONAL SOHASINING
O‘ZIGA XOSLIGI (SIL KASALLIKLAR MISOLIDA)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/P751 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilde (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) ilmiy kengash veb sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Urazbaeva Dilbar Abdullaevna

psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna,
psixologiya fanlari doktori, professor

Narmetova Yulduz Karimovna, psixologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.202. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024yil «___»_____kuni soat___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertasiya avtoreferati 2024 yil «___»_____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «___»_____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari
doktori, professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sil kasalligi o‘limning yetakchi sabablari orasida 13-o‘rinni egallaydi va COVID – 19dan keyin infeksiyaning qo‘zg‘atuvchisi tufayli o‘limning ikkinchi muhim sababidir (OIV/OITSdan oldin). 2021 yilda dunyo bo‘ylab taxminan 10,6 million kishi sil kasalligi bilan xastalangan, shu jumladan 6 million erkak, 3,4 million ayol va 1,2 million nafari bolalardan iborat bo‘lib, mazkur kasallikdan jami 1,6 million kishi vafot etgan. Ko‘p dori-darmonlarga chidamli sil kasalligi (MLU-TB) hanuzgacha inqirozli vaziyatda bo‘lib, inson salomatligiga tahdid solmoqda.¹ Bu borada 2018 yilda BMTning sil kasalligi bo‘yicha Oliy darajadagi yig‘ilishida kasallik bilan bog‘liq profilaktika, diagnostika, davolash va yordam ko‘rsatish bo‘yicha yillik xarajatlar xajmi 13 mlyard dollarga yetkazilganligi hamda BMTning barqaror rivojlanish, sog‘liqni saqlash maqsadlaridan biri etib 2030 yilgacha sil kasalligi epidemiyasini tugatish belgilanganligi va JSST 2035 yilgacha dunyoda sil kasalligi tufayli o‘lim ko‘rsatkichini 95 foizga kamaytirishga doir strategik maqsad belgilab olinganligi - ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi.

Jahon oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida sil kasalliklari misolida yetuklik yoshidagi bemorlar psixoemotsional sohasining o‘ziga xosligini o‘rganishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining taxminan uchdan bir qismi sil kasalligini keltirib chiqaradigan mikrobakteriya bilan kasallangan bo‘lib, u bilan kurashish bo‘yicha faol global choralar ko‘rilishi davr talabi bo‘lib qoldi². Shu bois silni davolash, oldini olish va rehabilitatsiya tadbirlarini keng ko‘lamda amalga oshirish, bemorlarning salomatligini tiklash bugungi kunda butun jahon miqyosidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarga o‘ziga xos tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish, ularni psixologik tiklash, oila a‘zolari bilan ishlash, psixologik qo‘llab-quvvatlash, mazkur kasallik rivojlanishining oldini olish, profilaktikasiga jiddiy ahamiyat berish, aholi salomatligini asrashda psixologik targ‘ibot-tashviqot, tibbiy, rehabilitatsion, tashkiliy masalalarni joriy etish zarurati yanada kuchaymoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda tibbiyot sohasini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yuqori darajalarga olib chiqish, mehnatga layoqatli va turli yoshdagi kishilarda sil kasalligini oldini olish va asoratlarini davolash borasida zarur huquqiy-me‘yoriy asos yaratildi: «...Mamlakatimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo‘yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarasi orqali sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va profilaktika qilish...»³ vazifalari ustuvor etib

¹ World Health Organization <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/tuberculosis> 2023 йил 21 апрел

² <http://bsmp2.ru/wp-content/images/patsientu/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda 5590-sonli «Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4096197>

belgilanganligi sababli sil kasalligini davolash, bemorlarning salomatligini tiklash, ularga psixologik yordam ko'rsatish choralari takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish va ilmiy-amaliy yechimlarni topishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019 yil 3 fevraldagi PF-4190 son «O'zbekiston Respublikasida aholi ruhiy salomatligini saqlash xizmatini rivojlantirish bo'yicha 2019 – 2025 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi to'g'risida», 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlar, 2023 yil 20 yanvardagi PQ-12-son «2023 – 2026 yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 13 fevraldagi PQ-4191-son «Ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori hamda boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda sil kasalligini tibbiy jihatdan o'zbek olimlaridan S.I.Azimov, K.G.Ganiyev, K.S.Muxamedov, A.M.Ubaydullayev va boshqalar o'rganishgan. Tibbiy psixologiya bo'yicha olimlardan Z.R.Ibodullayev, D.I.Ilxamova, I.K.Jumaniyazova, N.R.Jumaniyazova, M.B.Kalandarova, R.N.Melibayeva, Yu.K. Narmetova, N.R.Salimova, D.A.Urazbayevalar tomonidan kasalliklarning kelib chiqishi, tashxislash, bemorlarning psixologik xususiyatlari, ruhiy va shaxsiy emotsional holatlari, kasallikda psixoterapiyaning qo'llanishi masalalari ilmiy-amaliy tadqiq etilgan bo'lsa-da, yetuklik yoshidagi bemorlar psixoemotsional sohasining o'ziga xosligi (sil kasalliklar misolida) mahsus ilmiy-amaliy tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan O.G.Ivanova, O.E.Dobrovolskaya, T.B.Pyanzova, A.V.Mordik, L.V.Puzireva, Ye.V.Zaxarova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida sil kasalligi, uning inson psixologiyasiga ta'siri muammolari, bemorlardagi psixologik himoya, xavotirli-depressiv buzilishlar, rehabilitatsion tadbirlar ahamiyati va ijtimoiy-oilaviy psixoterapevtik yordam ko'rsatishning samaradorligi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan B.Boratav, D.Batigun, H.Emami, B.Garma, D.Shojaeizadeh, L.Kuey, L.Muchotrigo, A.Margarita, F.Monjazebi, E.Rodrigo, G.Radmand, J.Richter, L.Tadesse va boshqalar kasallikdan keyingi depressiya (ruhiy tushkunlik), xavotirlilik, kasallik bilan bog'liq stress, bemorlardagi o'ziga va atrofga nisbatan munosabat masalalari ilmiy tadqiq etishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-1. PZ-20170928556 raqamli «Onkologiya sohasida psixologik xizmatning ahamiyati» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020 y.y).

Tadqiqotning maqsadi. Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarning emotsional holatlarini baholash orqali ularning reabilitatsiya jarayoniga yordam beruvchi tibbiy-psixologik xizmat sifatini oshirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda xavotirlanish va stress darajasi ijtimoiy-psixologik omillar sababli yetuklik yosh va gender tafovutlarga ko'ra farqlarni tizimlashtirish;

sil kasalligida yetuklik davridagi bemorlarda xavotirlanish va subdepressiya darajasi hulqda ifodalanishi, kasallikka munosabatda yosh va gender farqlar mavjudligini ilmiy tadqiq etish;

sil kasalligi bilan xastalangan yetuklik davridagi bemorlardagi emotsional o'zgarishlar ta'sir doirasiga ko'ra psixologik omillar differensial bog'liqligini ilmiy dalillash;

yetuklik yosh bosqichidagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda psixik salomatligini barqarorlashtirishga qaratilgan psixokorreksion dasturni ishlab chiqish va tibbiy-psixologik xizmat sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar emotsional holatlari tanlangan bo'lib, Xorazm viloyat Ftiziatriya va pulmonologiya markazi, Buxoro viloyat Ftiziatriya va pulmonologiya markazi va Qoraqalpog'iston Respublikasi №1-son Respublika tumanlararo ftiziatriya shifoxonasida davolanayotgan yetuklik yoshdagi 138 nafar sil bilan kasallangan bemorlar, salomatligida sil muammosiga duchor bo'lmaganlar 125 nafar, jami 263 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti yetuklik yoshidagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarning emotsional holatlari va ularga psixokorreksion ta'sir ko'rsatish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda suhbat metodi, shuningdek, Ch.D.Spilberger va Yu.L.Xaninning «Vaziyatli va shaxsiy xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi, Zung-Balashvaning «Kayfiyati yo'qlik-subdepressiya darajasini aniqlash so'rovnomasi», «BISHS» (Bexterev instituti shaxs so'rovnomasi), A.Bekning «Depressiyani aniqlash» test-so'rovnomasi, A.I.Serdyukning «Kasallikning ijtimoiy ahamiyatini baholash» so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik

ishonchlilik darajasi matematik statistik metodlaridan Manna-Uitning U-mezoni, Kruskal-Uollisning-H-mezoni, Spirmanning r-korrelyasiya koeffisientini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallik bilan bog'liq xavotirlanish va stress darajasi jamiyatdagi faol harakat, ijtimoiy mavqe, o'z o'rniga ega bo'lish kabi ijtimoiy-psixologik omillar sababli yosh xususiyatlariga ko'ra farqlar bo'lishi isbotlangan;

sil kasalligida davolanish muddatining uzoqligi bemorlarda xavotirlanish va subdepressiya darajasining oshishiga, kasallikka munosabatning «xavotirli», «nevrasteniy», «anozognozik», «obsessiv-fobiyali», «ipoxondrik» tiplarning hulqda rivojlanishi sababli, bemorlar tomonidan kasallikning ijtimoiy ahamiyatini baholashda yosh xususiyatlarga ko'ra farqlar mavjudligi asoslangan;

yetuklik yoshidagi sil xastaligi bilan davolanayotgan bemorlarda namoyon bo'ladigan psixologik o'zgarishlar, stress buzilishlarining psixologik xususiyatlari diagnostika qilinishiga ko'ra, kasallikning rivojlanishi, kechishi va davolanishga ta'sir qiluvchi bemor ruxiy holati va psixologik omillar differensial identiv ekanligi dalillangan;

yetuklik yoshidagi bemorlarda kasallik kechisi bilan bog'liq emotsional, kognitiv va hulq-atvordagi o'zgarishlarga ko'ra psixoemotsional sohaga integrativ ta'sir natijasida yoshga bog'liq holda kasallikka nisbatan «garmoniya», «anozognozik», «ergopatik» tiplarining integrativ rivojlanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yetuklik davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarga psixologik yordam ko'rsatishda, ularning kasallikdan keyingi emotsional holatlarini o'rganishga doir metodika va so'rovnomalar qo'llanilgan;

silga chalingan yetuklik yosh bosqichidagi bemorlarda kasallikka qarshi kurashishda psixologik qo'llab-quvvatlashga doir uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

sil bilan davolanayotgan bemorlarga emotsional-hissiy sohasiga ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida psixologik xizmatga doir psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan va amaliyotda aprotatsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi avvalo tadqiqot ob'yektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirish va treninglarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlagan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida qayta ishlangani bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida shakllantirilgan, taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallik kechishi, uni davolash samaradorligi emotsional soha bilan aloqadorligi, bemorlarning kasallik davrlari xususiyatlariga e'tibor qaratgan holda kasallikning ijtimoiy ahamiyatini va

kasallikka munosabat tiplarini aniqlashtirish, bemorlar emotsional sohasiga ta'sir qilishning psixologik modeli mazmun mohiyati ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati, qo'lga kiritilgan natijalar oliy ta'lim muassalarida «Rivojlanish va differensial psixologiya», «Tibbiyot psixologiyasi», «Psixodiagnostika», «Umumiy psixologiya», «Psixokorreksiya», «Psixologik xizmat», «Psixogigiyena», «Sotsial psixologik trening» fanlarining o'qitilishini mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan psixokorreksion dasturdan tibbiy psixologlar o'z amaliyotida foydalanishlari, malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishda samarali foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yetuklik yoshdagi bemorlar psixoemotsional sohasining o'ziga xosligi (sil kasalliklar misolida) bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallik bilan bog'liq xavotirlanish va stress darajasi jamiyatdagi faol harakat, ijtimoiy mavqe, o'z o'rniga ega bo'lish kabi ijtimoiy psixologik omillar sababli yosh xususiyatlariga ko'ra farqlar bo'lishi isbotlangan, aniqlangan xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-iliy markazining 2023 yil 22 dekabrda PM-107 buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 28 dekabrda PM-107-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yetuklik yoshdagi bemorlarda xavotirlik va depressiya rivojlanishiga ko'ra yosh va gender xususiyatlarga xos tafovutlar yuzasidan ilmiy asoslashga erishilgan;

sil kasalligida davolanish muddatining uzoqligi bemorlarda xavotirlanish va subdepressiya darajasining oshishiga, kasallikka munosabatning «xavotirli», «nevraasteniya», «anozognozik», «obsessiv-fobiyali» tiplarning hulqda rivojlanishi sababli, bemorlar tomonidan kasallikning ijtimoiy ahamiyatini baholashda yosh xususiyatlarga ko'ra farqlar mavjudligi asoslangan yangilik Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-iliy markazining 2023 yil 22 dekabrda PM-107 buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 28 dekabrda PM-107-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yetuklik yosh davridagi bemorlar yosh, individual va gender xususiyatiga ko'ra ta'sir o'tkazish mexanizmi psixologik jihatdan empirik o'rganish ko'lami kengaytirilgan;

yetuklik yoshidagi sil kasalligi bilan davolanayotgan bemorlarda namoyon bo'ladigan psixologik o'zgarishlar, stress buzilishlarining psixologik xususiyatlari diagnostika qilinishiga ko'ra, kasallikning rivojlanishi, kechishi va davolanishga ta'sir qiluvchi bemor ruxiy holati va psixologik omillar differensial identiv ekanligi dalillangan Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-iliy markazining 2023yil 22 dekabrda PM-107 buyrug'i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 28 dekabrda PM-107-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sil kasalligi bilan xastalangan bemorlaridagi

emotsional holat o'zgarishlarining differensial farqlari mavjudligi asoslashga imkon yaratilgan;

yetuklik yoshidagi bemorlarda kasallik kechishi bilan bog'liq emotsional, kognitiv va hulq-atvordagi o'zgarishlarga ko'ra psixoemotsional sohaga integrativ ta'sir natijasida yoshga bog'liq holda kasallikka nisbatan "garmoniya», «anozognozik», «ergopatik» tiplarining integrativ rivojlanishi dalillangan, Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-iliy markazining 2023 yil 22 dekabrda PM-107 buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 28 dekabrda PM-107-asonli ma'lumotnomasi). Natijada bemorlar psixoemotsional sohasiga ijobiy ta'sir qiladigan psixokorreksion dasturni qo'llash samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot asosiy natijalari bo'yicha 14 ta ilmiy maqola, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 166 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Psixologik tadqiqotlarda sil kasalligini o'rganish masalasi va nazariy yondashuvlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida sil kasalligi va unga nisbatan munosabat masalalarini qadimgi davr va sharq mutafakkirlari g'oyalarida aks ettirilishi, sil kasalligi muammosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilganlik holati, bemor va atrofida insonlar bilan munosabatini psixologik o'ziga xosligi nazariy tahlil qilingan. Tadqiqotchi G.V.Baranova, Ya.I.Kots, T.L. Mironova, N.N.Siresina, R.V.Qodirov, E.A.Fau, T.A.Xudshinalarning ko'rsatishicha, kasallikni yuqtirgan bemorda kasalxonada uzoq muddatli davolanishga zarurat borligi, kasallik natijasida bemor shaxsida turli rollarning keskin o'zgarishi, kasbiy faoliyatni to'xtatish, ijtimoiy aloqalarning pasayishi, stigmatizatsiya bilan bog'liq o'tkir stressli holatlar bilan ifodalanishi aniqlangan. Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kuzatiladigan stressli holatlarning davomiyligi ular shaxsiyatida turli xil o'zgarishlarga olib kelishi, shaxsiyat va kognitiv buzilishlarga va psixik faoliyatda patologik jarayonlar rivojlanishiga psixotraumatik faktorlar sabab bo'lishi e'tirof qilingan. A.S.Bogdanov,

N.S.Pravada, M.S.Makovich-Mirojevskaya va A.M.Budriskiylar tadqiqotlariga ko'ra, o'pka silidagi bemorlar bilan turli darajadagi davolanayotgan bemorlar psixologik xususiyatlari qiyosiy o'rganilganda ularda asabiylik, tajovuzkorlik, ishonchsizlik-shubha, boshqalar bilan qarama-qarshilik, hayot sifati darajasi, birinchi navbatda, faoliyatdagi hissiy va ijtimoiy jihatdan zo'rvonlik kabi asosiy ko'rsatkichlar ko'proq namoyon bo'lishi kuzatilgan.

Mualliflar ilmiy tadqiqotida bemorning davolanishga rioya qilishda ko'plab omillarning kombinatsiyasiga e'tibor qaratib, sil xastaligi bilan davolanayotgan bemorlarda o'rganilayotgan psixologik muammolar keng qamrovli ekanligiga qaramay, yetuklik yosh davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar rehabilitatsiyasida yosh xususiyatlarning ta'sir doirasi yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, tadqiqotlardagi psixologik simptomlar klinik sharoitda aniqlash bilan chegaralangan va bemordagi psixologik buzilishlarni dori-darmonlar bilan davolash yondashuvi qo'llanilgan.

Dissertatsiyaning «**Yetuklik yoshidagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar emotsional holatlarning differensial tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida psixologik tadqiqotlarning metodologik asoslari, yetuklik davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarning kasallikka munosabati psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish psixodiagnostikasi, metod va metodikalar tavsifi keltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosini kasallikning ichki manzarasi va og'ir somatik kasalliklarning ruxiyatga ta'siri haqidagi rus olimlarining ishlari R.A.Luriya, V.V.Nikolayevalar, V.N.Myasishev munosabatlar nazariyasini, G.Selye stress konsepsiyasini, B.G.Anan'yev, B.F.Lomov va boshqalar tizimli-majmuaviy yondashuv tamoyillarini, N.D.Lakosina, G.K.Ushakovlar kasallikka ta'sirini, A.E.Lichko, N.Ya.Ivanovalar kasallikka munosabatni ilmiy asoslashgan.

Tadqiqotdagi so'rovnomalardan olingan natijalar asosidagi 1-rasmda sil kasalligi bilan xastalangan yetuklik davridagi bemorlarning kasallik turi, yosh xususiyatlari va tafovutlari tashxis turlari bo'yicha tahlillar quyidagi jadvallarda ifodalangan. Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, yetuklik davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarning 70 nafari BK+ shaklidagi bemorlar, 68 nafar MLU shaklidagi bemorlar bo'lib, shundan, yoshlik davridagi 46 nafar, yetuklik davrining 1-bosqichidagi 47 nafar, yetuklik davrining 2-bosqichidagi 45 nafar respondentlardan iborat ekanligi ko'rinadi.



Rasm 1. Sil kasalligi bilan xastalangan respondentlarning yoshga oid nisbati

Tadqiqotda qatnashgan respondentlarda kasallik sababli ularda kayfiyati yo'qlik-subdepressiya ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida Zung-Balashchevning kayfiyati yo'qlik subdepressiya so'rovnomasidan foydalandik. Natijalarga ko'ra, sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallik turiga ko'ra BK+ (dori vositalariga turg'unlik) va MLU(miqdori ko'p dori vositalariga turg'unlik)da yuqori darajadagi ishonchli tafovut kuzatildi ($U=836,5$; $p<0,001$).

1-jadval

Bemorlarning sil kasallik turlari kesimida Zung-Balashchevalarning «Kayfiyati yo'qlik subdepressiya» so'rovnomasi kesimidagi tafovutlari, Mann Uitni mezoniga ko'ra, n=138

Ko'rsatkichlar	Kasallik turi	O'rtacha rang	U	P
Kayfiyati yo'qlik subdepressiya	BK+	47,45	836,500	,000***
	MLU	92,20		

Izoh: *** $p<0,001$

Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, tafovut kasallik bilan bog'liq davolanish muddati, bemordagi psixoemotsional moslashuvdagi qiyinchiliklar va dorilarga nisbatan psixik sezuvchanlikning oshishi bilan bog'liqdir. Chunki kasallikning BK+ sezuvchan shaklida 3 oy davomida 4-5 silga qarshi dori vositalar qabul qilinib, quvvatlovchi bosqichda 5-oylik 2-3 dori vositasi qabul qilinsa, MLU-silning turg'un shaklida 8 oy 5-6 dori vositasi qabul qilinib, quvvatlovchi bosqichda 12 oydan ortiq 3-4 dori vositasining qo'llanishi bilan birga bemorning jismoniy holatidagi cheklovlar va kasallik bilan bog'liq xavotirlik va stressli holatlar subdepressiyaga sabab bo'ladi, deya izohlashga asos yaratadi. Chunki, bemorning uzoq muddatli davolanish jarayonida jismoniy quvvat bilan bog'liq muammolarning kelib chiqishi bemor ichki psixik holatida o'ziga nisbatan ishonch darajasining pasayishiga, o'zini keraksiz, foydasi tegmaydigan inson sifatida his qilinishiga olib keladi va bu vaziyat ularda kayfiyatni tushib ketishiga, subdepressiya va hatto ba'zan depressiyani rivojlantiradi.

2-jadval

Spilberger-Xaninning «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik» so'rovnomasi asosida respondentlar turi kesimida tafovutlari, Mann Uitni mezoniga ko'ra, n=276

Ko'rsatkichlar	Respondentlar Turi	O'rtacha rang	U	P
Reaktiv xavotir	sog'lom respondentlar	80,17	1473,000	,000***
	Bemorlar	196,83		
Shaxsiy xavotir	sog'lom respondentlar	78,61	1257,000	,000***
	Bemorlar	198,39		

Izoh: *** $p<0,001$

2-jadvalda yetuklik yosh davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallikning ifodalanishi ularning ijtimoiy hayot tarziga va maqsadlariga katta ta'sir ko'rsatishini hisobga olib, bemorlardagi vaziyatga nisbatan munosabatni aniqlash

maqsadida Spilberger-Xaninning “Reaktiv va shaxsiy xavotirlik” so‘rovnomasi natijalari berilgan.

2-jadvalga ko‘ra, bemorlarda sog‘lom insonlarga qaraganda subdepressiya darajasining balandligini kasallik bilan bog‘liq moslashuvdagi muammolar bilan aloqador, deya baholash mumkin. Chunki, yetuklik yosh davrida ijtimoiy faol munosabatlarning cheklanishi, hayotidagi salbiy o‘zgarishlarni kasallik ta’siri sifatida baholanishi bilan izohlash mumkin. Yetuklik yosh davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarni xavotirlik darajasi ko‘rsatkichlarini sog‘lom insonlar bilan solishtirish natijasida ulardagi muammolarning asosi kasallik ta’sirlari bilan bog‘liqlikda kechishini kuzatdik.

Spilberger-Xaninning reaktiv va shaxsiy xavotirlik so‘rovnomasi yosh davrlar kesimida o‘rganilganda ham ishonch darajasidagi o‘zaro tafovutlar aniqlandi ($H=15,489$; $p<0,001$), ($H=19,550$; $p<0,001$).

3-jadval

Spilberger-Xaninning «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik» so‘rovnomasi asosida yetuklik davrlaridagi o‘zaro tafovutlari, Kruskal-Uollis mezoniga ko‘ra, n=138

Ko‘rsatkichlar	Respondent turi	O‘rtacha rang	H	P
Reaktiv xavotirlik	yoshlik davri	77,30	15,489	,000***
	yetuklik 1-bosqichi	80,43		
	yetuklik 2-bosqichi	50,76		
Shaxsiy xavotirlik	yoshlik davri	77,30	19,550	,000***
	yetuklik 1-bosqichi	82,70		
	yetuklik 2-bosqichi	48,50		

Izoh:*** $p<0,001$

3-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, yoshlik va yetuklik davrining 1-bosqichida kasallik bilan bog‘liq reaktiv xavotirlanish va shaxsiy xavotirlik darajasi yetuklik davrining 2-bosqichiga nisbatan yuqori idodalanar ekan. Bu yosh davrlariga bog‘liq xususiyatlar bilan ifodalanib, yoshlik va yetuklikning birinchi bosqichida jamiyatdagi faol harakatlar, ijtimoiy mavqe, jismoniy imkoniyatlarning keng qo‘llanilishi, shaxslararo munosabatlardagi kar‘era masalasi, shuningdek, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishdagi yuqori intensiv faollik bilan bog‘liq jarayon ekanligini hisobga olsak, ushbu davrlarda xavotirlikning yuqoriligini tavsiflash mumkin. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida esa ular yosh xususiyatiga xos bo‘lgan ijtimoiy hayotga, inson qadr-qimmatiga, o‘ziga va boshqalarga yangi mezon bilan qarash, hodisalarga vazminlik, sabr-toqat bilan munosabatda bo‘lishning yuzaga kelishi ulardagi xavotirlik darajasi ko‘rsatkichini izohlashda va hayotda qo‘ldan boy berilgan imkoniyatlar sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Natijalarga tayangan holda izohlashimiz mumkinki, bemordagi xavotirlik darajasi kasallikka munosabat tipida ham ifodalanishini hisobga olsak, BISHS so‘rovnomasida yetuklik yosh davrlar kesimida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. Demak, yetuklik yosh davrlarida yosh va jinsdagi o‘zaro tafovutlarni jamiyatdagi bajaradigan rollari, ish faoliyatidagi hatti-harakatlari, mavqei bilan bog‘liqligini guvohi bo‘ldik.

Yetuklik yoshdagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallikning garmonik va nevraasteniya tipida ham ishonchli darajadagi tavovutlar qayd qilindi ($U=9,417$ $p<0,010$, ($U=,000$ $p<0,001$). Fikrimizcha, yetuklikning yoshlik bosqichidagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda garmonik tipning shakllanishi kasallikka munosabatda qiyinchilikni his qilmaslik, uni yengishga nisbatan ishonchning namoyon bo'lishi yosh xususiyatiga bog'liq, deya fikrlashimizga asos bo'ladi.

4-jadval

«Bexterev Institutining Shaxs So'rovnomasi» bo'yicha yetuklik davrlar kesimidagi ko'rsatkichlari, Kruskal-Uollis mezonida, n=138

Ko'rsatkichlar	Respondentlar turi	O'rtacha rang	H	P
Garmonik	Yoshlik	85,32	14,296	,000***
	Yetuklik 1-bosqich	55,74		
	Yetuklik 2-bosqich	67,45		
Xavotirlanuvchanlik	Yoshlik	79,23	5,439	,066
	Yetuklik 1-bosqich	60,03		
	Yetuklik 2-bosqich	69,24		
Ipxondrik	Yoshlik	68,89	1,547	,461
	Yetuklik 1-bosqich	74,82		
	Yetuklik 2-bosqich	64,79		
Apatik	Yoshlik	71,72	2,289	,318
	Yetuklik 1-bosqich	62,60		
	Yetuklik 2-bosqich	74,18		
Nevrasteniya	Yoshlik	84,03	9,417	,009**
	Yetuklik 1-bosqich	61,89		
	Yetuklik 2-bosqich	62,58		
Obsessiv fobiyali	Yoshlik	73,02	,833	,659
	Yetuklik 1-bosqich	65,60		
	Yetuklik 2-bosqich	69,88		
Senzitiv	Yoshlik	64,82	3,829	,147
	Yetuklik 1-bosqich	65,14		
	Yetuklik 2-bosqich	78,54		
Egosentrik	Yoshlik	76,70	2,657	,265
	Yetuklik 1-bosqich	67,64		
	Yetuklik 2-bosqich	64,16		
Eyforik	Yoshlik	62,91	3,464	,177
	Yetuklik 1-bosqich	67,78		
	Yetuklik 2-bosqich	77,80		
Anozognozlik	Yoshlik	63,79	1,633	,442
	Yetuklik 1-bosqich	71,04		
	Yetuklik 2-bosqich	73,66		
Ergopatik	Yoshlik	70,33	4,404	,111
	Yetuklik 1-bosqich	60,54		
	Yetuklik 2-bosqich	77,63		
Paranoyyal	Yoshlik	65,18	2,585	,275
	Yetuklik 1-bosqich	77,01		
	Yetuklik 2-bosqich	66,30		

Izoh:**p<0,01; ***p<0,001

4-jadvaldan ko‘rinadiki, yetuklik davrining 1-bosqichida faollik, yuqori harakatchanlik, do‘stlar davrasidan, oiladan uzoqlashuv bilan birga, karyeraga intilish motivlariga kasallikni to‘sqinlik qilayotganini his qilishadi, shunga ko‘ra ularda nevroitik hulq shakllanadi.

Yetuklik yosh davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallikka nisbatan munosabatning shakllanishi bevosita ijtimoiy munosabatlar ta‘siri bilan baholanar ekan, ularning shaxsiy-ijtimoiy holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi mexanizmlarni aniqlash maqsadida Serdyukning «Kasallikni ijtimoiy ahamiyatini baholash» so‘rovnomasi o‘tkazildi, 5-jadvalga qarang.

Tadqiqotda oilaviy munosabatlarning yomonlashuvi shkalasida ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=20,332$ $p<0,001$). Yetuklikning 2-bosqichida oilaviy munosabatlarning yomonlashishini his qilish darajasining yuqoriligi sababini izohlashda ushbu davrga xos bo‘lgan insonning o‘tmish tajribasi, “Men” obrazi, yosh davriga xos bo‘lgan inqirozli holatlar ta‘siri sifatida baholaymiz.

Bemorlarning munosabat yomonlashuvi shkalasi bo‘yicha ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=6,095$ $p<0,05$). Bu holat bevosita ish o‘rnining yo‘qotilishi, kasallikdan davolanadigan muddatda faoliyatini davom ettira olmaslik bilan bog‘liq bo‘lib, kasallikka nisbatan tashvishlanishni kuchaytiradi. Yetuklikning 2-bosqichidagi ish munosabatlarining yomonlashuvi nisbatan past ko‘rsatkichni ifodalashi esa bemorda ijtimoiy faollikning susayishi, xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg‘usi o‘rtasidagi inqiroz bilan izohlash mumkin.

Bo‘sh vaqtning chegaralanganligi shkalasi bo‘yicha ham ishonchli darajadagi tafovutlar kuzatildi ($U=19,686$ $p<0,001$). Yetuklik davrining 2-bosqichida kuchliroq ifodalanishi mehnat faoliyati bilan muntazam shug‘ullanish, ijtimoiy faollikning susayishi, bo‘sh vaqtini dam olishga sarflashni hohlash ehtiyoji bilan birgalikda, bo‘sh vaqtini davolanishga, kasalxonada o‘tkazishga sarflash tuyg‘usida ifodalangan.

Biz tadqiqotning navbatdagi bosqichida A.I.Serdyukning “Kasallikning ijtimoiy ahamiyatini baholash” so‘rovnomasi asosida olingan natijalarni 5-jadvalda keltirdik.

Kasbiy mavqeni oshirish imkoniyatining chegaralanganligi shkalasi bo‘yicha yetuklik davrlari kesimida ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=6,203$ $p<0,05$). Yani, yoshlikda bemor kasallik tufayli jamiyatda faol mehnat harakatlarini olib bora olmasligi, yaxshi o‘rinlarga, kasbiy mavqeni oshirish imkoniyatiga ega bo‘la olmaslik hissi xavotirlanishni oshiradi. Shuningdek, bu davrda jadal mehnat faoliyatiga ehtiyojning oshishi va uning qondirilishida iqtisodiy ta‘minotga bog‘liq tarzda ifodalashi bilan bog‘lashimiz mumkin. Yetuklik davrining 1-bosqichida kasbiy mavqega bo‘lgan chegaralanishni his qilish yoshlik davriga nisbatan quyiroq ifodalanishini kasbiy shakllangan, nisbatan jamiyatda o‘zini o‘rnini his qilishga ulgurgan shaxs sifatida tavsiflasak, yetuklik davrining 2-bosqichida kasbiy mavqei yuzasidan ma‘lum bir yutuqlarga erishgan, o‘z o‘rnini baholashga va xulosa chiqarishga qodir inson ekanligi sifatida baholaymiz. Shuningdek, bemorlarda kasallikka moslashish tuyg‘usi jamiyatda kasbiy mavqeni oshirish imkoniyati bilan bog‘liq maqsadlarga ta‘sir qilishi bilan ham izohlanadi.

5-jadval

A.I.Serdyukning «Kasallikning ijtimoiy ahamiyatini baholash» so‘rovnomasi asosida yetuklik davrlar kesmida o‘zaro tafovutlar, Kruskal-Uollis mezonida, n=138

Ko‘rsatkichlar	Respondentlar turi	O‘rtacha rang	H	P
KCh	Yoshlik	68,45	,434	,805
	Yetuklik 1-bosqich	72,42		
	Yetuklik 2-bosqich	67,63		
OYo	Yoshlik	55,12	20,332	,000***
	Yetuklik 1-bosqich	63,95		
	Yetuklik 2-bosqich	89,43		
RCh	Yoshlik	64,54	1,296	,523
	Yetuklik 1-bosqich	70,50		
	Yetuklik 2-bosqich	73,46		
IYo	Yoshlik	78,46	6,095	,047*
	Yetuklik 1-bosqich	70,80		
	Yetuklik 2-bosqich	59,24		
VCh	Yoshlik	58,65	19,686	,000***
	Yetuklik 1-bosqich	61,38		
	Yetuklik 2-bosqich	88,47		
KCh	Yoshlik	80,33	6,203	,045*
	Yetuklik 1-bosqich	67,58		
	Yetuklik 2-bosqich	60,60		
JP	Yoshlik	60,93	10,697	,005**
	Yetuklik 1-bosqich	64,07		
	Yetuklik 2-bosqich	83,50		
ZH	Yoshlik	77,07	4,334	,115
	Yetuklik 1-bosqich	67,66		
	Yetuklik 2-bosqich	63,77		
MCh	Yoshlik	66,58	11,379	,003**
	Yetuklik 1-bosqich	58,11		
	Yetuklik 2-bosqich	83,82		
MZ	Yoshlik	91,89	39,644	,000***
	Yetuklik 1-bosqich	74,26		
	Yetuklik 2-bosqich	42,35		

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

Jismoniy jozibalikning pasayishi bilan bog‘liq shkaladan olingan natijalarda ham ishonchli tafovutlar kuzatildi ($U=10,697$ $p<0,01$). Yetuklik davrining 2-bosqichida bu shkalaning yuqoriligini shu bilan izohlashimiz mumkinki, bu davrda inson qarish belgilari-ajin tushish, sochlarning oqarishi va teridagi o‘zgarishlar barobarida yanada ozg‘inlik, ranglarning so‘lishi, ishtaha pasayishi kabilarning qo‘shilishi ulardagi hissiy-emotsional sohaga yanada ko‘proq ta’sir qiladi, deya baholashimiz mumkin. Ayniqsa, bemorning atrofdagilarga, yaqinlariga kasallik oqibatida xunuk va yoqimsiz ko‘rinishga ega bo‘lganligidan xavotirlanish yetuklikning 2-bosqichida ko‘proq namoyon bo‘lgan. Yoshlik va yetuklikning 1-bosqichida bu qiymatning nisbatan pastroq ifodalanishi bu davrga xos bo‘lgan tashqi ko‘rinishga e’tibor qaratish, ya’ni kiyinishga, taomlanishga, o‘ziga oro berish

imkoniyati bilan ham to'ldirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa ham yetuklik davrlari kesimida kasallikda tashqi jozibadorligining pasayishi, xunuklashishdan qo'rqish, qayg'urish va kemptiklik hissini keltirib chiqaradi.

Kasallik sababli atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlar, muloqotga kirishishning qiyinligi, muloqotning chegaralanganligini his qilish shkalasida ham ishonchli tafovutlar kuzatildi ($U=11,379$ $p<0,01$). Natijalarga ko'ra xulosa qilishimiz mumkinki, yetuklik davrining 2-bosqichida insondagi ma'lum qadriyatlarining shakllanganligi, shu davrga qadar tajribalarida muloqotda ustunlikni va uni eshitishga, uni tushunishga qodir insonlarni tanlaydigan, yosh xususiyatiga ko'ra boshqa yosh davrlari bilan dunyoqarashining mos kelmasligini hisobga olsak, kasallik natijasida bu jihatning yanada bo'rttirilishi xavotirlikni oshishiga, o'zini muloqotda imkoniyati pasayganligini his qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.


Kasallik sababli ahamiyatli moddiy zarar ko'rganligi, davolanish jarayoni iqtisodiy qiyinchilikni keltirib chiqarganligini aniqlovchi shkalada ham ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=39,644$ $p<0,001$). Yoshlik va yetuklik davri 1-bosqichida iqtisodiy ta'minot aynan bu davrdagi insonlar tomonidan amalga oshirilishi, yoshlikda o'z ehtiyojlari va maqsadlarga erishishda iqtisodiy ahamiyat kasb etsa, yetuklik davrining 1-bosqichida oila ta'minoti bilan bog'liq jarayonlar ularda xavotirlikni oshirgan, deya baholashimiz mumkin. Yetuklikning 2-bosqichida esa bu ko'rsatkich nisbatan boshqa davrlarga qaraganda pasaygan. Chunki bemor yosh xususiyatiga ko'ra, hayot tajribasiga suyanishi, xato va kamchiliklarni etti o'lchab bir kes, qabilida ish tutish tuyg'usi hisobiga umumiy oila byudjetiga nisbatan moddiy zararni his qilinishi kasallikka nisbatan xavotirlikni kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning «**Yetuklik davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarining emotsional holatlariga psixologik ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida yetuklik davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarga ko'rsatiladigan psixologik yordamni tashkillashtirish, ular bilan o'tkaziladigan psixokorreksion dastur asoslari, psixokorreksion mashg'ulotdan keyingi natijalar keltirilgan.

Mazkur psixokorreksion dasturning eksperimental guruhida 30 nafar ixtiyoriy ishtirokchi jalb qilindi. Psixokorreksion dastur 8 ta mashg'ulotdan iborat bo'lib har bir mashg'ulot o'rtacha 2-2,5 soatga mo'jallangan (zaruratga ko'ra vaqt cho'zilishi mumkin).

Yetuklik yosh bosqichidagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar bilan o'tkaziladigan "Men kasallikni yengaman" nomli psixokorreksion mashg'ulotning emotsional-hissiy sohaga ta'sir ko'rsatish modeli quyidagicha ko'rinishga ega bo'lib, ishlab chiqilgan dastur orqali emotsional-hissiy sohaga ta'sir mexanizmi 2-rasmda ifodalandi.

Yetuklik yosh davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar psixoemotsional sohasini barqarorlashtirish modeliga asosan, ishlash mexanizmi ushbu yosh bosqichlarining barcha jihatlarini qamrab olgan psixotexnika va mashqlar yordamida amalga oshiriladi.



2-rasm. Yetuklik yoshidagi sil bilan xastalangan bemorlar emotsional-hissiy sohasiga ta'sir qilish modeli

Mazkur mexanizm quyidagi ketma-ketlikda ishlaydi.

1. Bemor shaxsiga alohida e'tibor, ichki shaxsiyatiga munosabatni aniqlashtirish orqali ruxiy yengillashadi, hissiy holatidagi kasallik bilan bog'liq negativ fikrlar qayta ishlanadi (shaxsiy va emotsional soha).
2. Bemor kasallikka nisbatan kechinmalariga e'tibor qaratadi, ichki imkoniyatlarini baholash orqali emotsional zo'riqishlarni yengillashtirilishiga ta'sir o'tkaziladi, guruxiy ishlashga yo'naltiriladi (kognitiv, emotsional va ijtimoiy soha)
